

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Umarova Aziza Sabirovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti talabasi

70110103- ta'lim muassasalarining boshqaruvi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15251101>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag'larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muhitini rivojlantirish masalalari xususida mushohada yuritilgan.

Kalit so'zlar: globallashuvi va axborotlar oqimi, ta'lim, innovatsion jarayonlar, raqamli texnologiya, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim xizmatlari, diversifikatsiya, menejmenti tizimi, oliy ta'lim muassasasi.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности реформ, реализуемых в системе высшего образования, обеспечения финансовой устойчивости государственных высших учебных заведений, самостоятельного решения вопросов укрепления материально-технической базы, расширения возможностей привлечения средств на научно-исследовательскую деятельность, развития конкурентной среды среди высших учебных заведений.

Ключевые слова: глобализация и информационный поток, образование, инновационные процессы, цифровые технологии, педагогические условия, образовательные услуги, диверсификация, система управления, высшее учебное заведение.

PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article examines the issues of increasing the effectiveness of reforms being implemented in the higher education system, ensuring the financial stability of state higher education institutions, independently resolving issues of strengthening the material and technical base, expanding the possibility of attracting funds for research activities, and developing a competitive environment between higher education institutions.

Keywords: *globalization and information flow, education, innovative processes, digital technology, pedagogical conditions, educational services, diversification, management system, higher education institution.*

Dunyoda ta'limning globallashuvi va axborotlar oqimining tezkor rivojlanishi jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarining transformatsiyasi muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. YUNESKO ning oliy ta'lim kvalifikatsiyalarini tan olish to'g'risidagi Global konvensiyasida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning innovatsion rivojlanishini ta'minlash oliy ta'lim muassasalaridagi transformatsion jarayonlar bilan uzviy bog'liqligi alohida qayd etiladi. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, ta'limdagi innovatsion jarayonlar hamda raqamli texnologiyalarga asoslangan transformatsion jarayonlarni taqazo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirish, ularni zamonaviy ta'lim kampusi sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqeini mustahkamlash, kreativ-ilmiy infrastrukturasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini yaratish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ta'lim xizmatlarini diversifikatsiyalash hamda sifat menejmenti tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish, raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ularning transformatsiyasini rivojlantirish" vazifalari belgilandi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari transformatsiyasining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini yaratish va uning tashkiliy-boshqaruv, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-oktabrdagi 655-son "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Transformatsiya (ingl. transformation) bu ma'lum bir ijtimoiy-madaniy birlashma yoki yaxlitlikning krizisga uchrashi natijasida uning tashqi ta'sirlar natijasida yangitdan paydo bo'lishi va rivojlanishi sifatida tushuniladi. Ta'limdagi transformatsion jarayonlar esa, ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash, ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion yondashuvlar vositasidagi yangilanish, o'zgarish jarayonlari sifatida tushuniladi.

Oliy ta'lim muassasasi transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik zaruratini asoslaydigan muhim komponentlardan biri ham ta'lim sifati va ta'lim sifatini boshqarish bilan bog'liq jarayonlarning asosi ta'limdagi innovatsion jarayonlar sanaladi. Oliy ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonlar esa o'z navbatida quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim oluvchilar uchun ijtimoiy-madaniy qadriyatlar tizimining shakllanganligi, ta'lim mazmunining shaxsga va ehtiyojlarga yo'nalganligi.

2. Ta'limning ekotizimlarga (davlat, jamiyat, ishlab chiqarish, ijtimoiy institutlar va boshq.) tezkor moslashish darajasi, barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'nalganligi, ta'lim sifatini doimiy (uzluksiz) ravishda takomillashtirib borish zarur.

3. Oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yo'nalishlari va ta'lim xizmatlari traektoriyasining kengayishi, diversifikatsiyasi hamda globallasuvi. Umuman olganda, jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan universitetlar funksiyalarining rivojlanish jarayonlari ham ma'lum bir tendensiyalarga ega bo'lgan holda vaqt o'tishi bilan ular o'zgarib va takomillashib borgan va bu holat hozir ham davom etmoqda.

Oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarni qisqa muddatda bartaraf etish maqsadida keyingi yillarda sohani tubdan takomillashtirish, izchil rivojlantirish, XXI asr talablariga moslashtirish, zamon bilan hamnafas qilish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, soha taraqqiyotiga yo'naltirilgan o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va

iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettirdi.

Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoriylashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berildi. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qildi. So'nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida xalqaro standartlar asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Asosiy e'tibor talaba-yoshlarning ta'lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi bilan birga, davlat byudjetining 3/1 qismi ta'limga yo'naltirildi. Natijada, o'tgan 6 yil mobaynida oliy o'quv yurtlari soni 77 tadan 210 taga yetdi, ularga qabul 3,5 baravarga ortdi. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 9 foizdan 39 foizga oshirildi. Bu esa, oliy ta'limda ta'lim xizmati sifati va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratish va ta'lim jarayonini xalqaro talablarga moslashtirish, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalari o'z vazifalarini bajarish uchun ustuvor yo'nalishlarni va shunga mos ravishda maqsadli resurslarni aniqlashi kerak. Universitetlar strategiyalarni aniqlay olmasalar, ustuvorliklarni belgilay olmasalar, o'qitish va tadqiqot maqsadlarini tanlay olmasa va amalga oshira olmasa hamda umuman o'z tuzilmalari va tashkilotlarini o'zgaruvchan muhitga moslasha olmasa, samarali va mustahkam bo'lolmaydi. Shuning uchun ham, XXI asr OTMlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlarni qabul qilishi zarur va korporativ boshqaruv kabi xususiy sektor modellariga amal qilish tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Ushbu tizimga rioya qilgan holda, OTMlar korporativ siyosat va rejalashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda tajribaga ega bolgan va rahbarlik qilish hamda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan boshqarilishi lozimligini ko'rsatadi. Mazkur korporativ boshqaruv tuzilmasi oliy ta'lim muassasalarining nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini amalga oshirishi, uzoq muddatli biznes-rejalar tuzishi, o'z missiyasi va strategik qarashlarini aniqlashi, asosiy faoliyat va samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqishi hamda yillik byudjet harajatlarni belgilashi va nazorat qila oladi.

Korporativ boshqaruv mexanizmlarini amalga oshirish universitet boshqaruvini takomillashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun harakatlantiruvchi vosita sifatida ifodalash mumkin, chunki u strategiyalarni belgilashda kollegial nazorat va boshqaruvi orqali samaradorlik olib keladi [3].

Shuningdek, ushbu tizim OTMning boshqaruvida duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga (boshqaruvni shaffof bo'lishiga) yoki o'sib borayotgan raqobatga bardosh berishga (yangi ta'lim yo'nalishini joriy etish yoki dolzarbligini yoqoyotgan yo'nalishni tugatish), reyting pozitsiyalarini yaxshilash, xarajatlar uchun chegaralarni belgilash va kengroq hamjamiyat uchun ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy majburiyat bilan tavsiflangan munosabatni qabul qilish imkonini beradi. Universitet faoliyatini yanada samaraliroq qilish, boshqaruv organlarining mas'uliyatini oshirish, kollegial organlar taklif etilayotgan yo'nalishlar ko'lamini takomillashtirish va kengaytirishga qaratilgan [4].

Universitetlar institutsional avtonomiyasini mustahkamlash uchun korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishi kerak, shu bilan birga jamiyatga nisbatan oshkoralik va natijalar ustidan nazoratni kuchaytirishga sababchi bo'ladi. Universitetlar boshqaruvi mustaqil, hisobdorlik va baholashni bog'lashi kerak. Shu maqsadda bizning OTMlarida ushbu tizimning boshlangich qadamlari qo'yilgan, jumladan, O'zbekiston Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 35ta OTMga moliyaviy mustaqillik berildi.

Moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi — oliy ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xarajatlar va daromadlarni nazorat qilish, shuningdek, institutsional barqarorlikni ta'minlashdir. Moliyaviy boshqaruvdagi muhim jarayonlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: budjetlashtirish, daromad manbalari, mahalliy budjetlar, xarajatlarning samarali sarflanishi nazarda tutiladi. Moliyaviy reja va strategik maqsadlar asosida amalga oshiriladigan nazorat va hisobot berish jarayonlari oliy ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Shuningdek, muassasa xodimlariga to'lanadigan maoshlar, ta'lim jihozlari, o'quv materiallari, kundalik ovqatlanish va boshqa xizmatlar uchun sarflanadigan xarajatlar moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismidir. Moliyaviy samaradorlik va nazariy nazorat ostidagi mablag'lar harakati, davlat grantlari va ijtimoiy loyihalardan foydalanish, oliy ta'lim tashkilotlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishning moliyaviy jihatlari juda muhim ahamiyatga ega.

Bu tashkilotlarning samarali ishlashini ta'minlash, farzandlar uchun yuqori sifatli ta'lim va tarbiyani tashkil qilish uchun moliyaviy resurslardan to'g'ri foydalanish talab etiladi.

OTMlarning o'zini o'zi moliyalashtirishga o'tishida ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining ayrim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga talab yuqoriligi va moliyaviy barqarorligini inobatga olinadi.

O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalariga quyidagi huquqlar beriladi:

- yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish maqsadida xodimlarga ustamalar va moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari miqdorlarini mustaqil belgilash;

- iqtidorli, shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlaridan bo'lgan talabalarni moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;

- saqlash xarajatlari, vazifa va majburiyatlarni bajarish, o'qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy etish hamda xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, dasturiy ta'minotlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, o'quv va ilmiy laboratoriyalar hamda sarflanadigan laboratoriya materiallarini (reaktivlar, kimyoviy idish, butlovchi, biologik materiallar va boshqa ob'ektlar), shu jumladan, kitoblar, jurnallar, o'quv adabiyotlari xarid qilish va chop ettirish uchun mablag'larni mustaqil sarflash;

- oliy ta'lim muassasasi infratuzilmasiga servis xizmatlari ko'rsatishning alohida turlari, jumladan, bino va inshootlar, talabalar turar joylari, sport ob'ektlaridan foydalanish, ularni tozalash, ta'mirlash, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya tarmoqlarini saqlash va yuridik xizmatlar ko'rsatishni autsorsing shartlarida tashkil etish.

Shuningdek, bo'ysunuvi bo'yicha tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda:

- oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik salohiyati, uning moddiy-texnik bazasi imkoniyatlarini inobatga olib, talabalarni to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish parametrlarini belgilash, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini ochish;

- oliy ta'lim muassasasini o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash miqdoridan kelib chiqib, to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash vakolati berilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari:

- davlat oliy ta'lim muassasalari Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lashdan ozod etilgan;
- moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga qonunchilikda oliy ta'lim muassasalari uchun nazarda tutilgan soliq imtiyozlari tatbiq etiladi;
- moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta'lim muassasalariga ijtimoiy soliqning 12 foiz miqdordagi stavkasi qo'llanadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ularni samarali moliyalashtirish tizimini ishlab chiqish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bir qator hal etilishi lozim.

Xorij va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlarini va tajribasini o'rgangan holda yuqoridagi kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi, jumladan:

- professor-o'qituvchi va ishchi-xodimlarning mehnatiga haq to'lashning samarali mexanizmi va me'yorlari ishlab chiqilmagan. Shu boisdan, ularning ish haqlari va ularga to'lanadigan ustama hamda mukofotlarni berish shartlari va tartibi bo'yicha aniq normalarni ishlab chiqish lozim, jumladan KPI tizimini joriy etishni tezlashtirish lozim;

- oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi ayrim ishchi xodimlarning ish haqi razryadlarining ularning ish hajmi va malaka (lavozim) talablariga mos emas.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida oliy ma'lumot talab etadigan shunday lavozimlar borki, ularning ish haqlari 1,5-2 mln so'mga ham yetmaydi.

Bunday ish haqiga hech qanday oliy ma'lumotli shaxs ishlashni xohlamaydi, ishlaydiganlarning ham samaradorlik ko'rsatkichi juda past.

Ularga qo'shimcha ustama belgilashdan ko'ra, shaffoflikni ta'minlash maqsadida mazkur lavozimlarga qo'yiladigan oliy ma'lumot talabani o'rta yoki o'rta maxsusga tushirish yoxud ularning ish haqlarini (razryadini) oshirish maqsadga muvofiq;

- oliy ta'lim muassasalari davlat xaridlarini amalga oshirishdagi noqulayliklar hamda buyurtmachi va yetkazib beruvchi o'rtasida shartnoma shartlarining bajarilmaslik muammolari tez-tez kuzatilmoqda. Davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmini qayta ko'rib chiqish, buyurtmachi va yetkazib beruvchilarning o'z majburiyatlarini majarmaslik uchun javobgarligini oshirish zarur;

- oliy ta'lim muassasalarining talabalarning to'lov-kontrakt summalariga qaram bo'lib qolayotganligi, ularda qo'shimcha manbalar jalb qilish bo'yicha samarali mexanizmning mavjud emas. Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha mablag'larni jalb etish, mavjud mablag'lardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish zarur;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 9 oktabrdagi PF-5847-son farmoniga muvofiq oliy ta'lim muassasalarida endowment fondlarni tashkil etishga ruxsat berilganligiga qaramasdan, bu borada oliy ta'lim muassasalari tomonidan deyarli hech qanday ishlar amalga oshirilmayapti. Bu boradi oliy ta'lim muassasalarida alohida bo'limlarni tashkil etish zarur;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi PF-5847-sonli farmoniga muvofiq oliy ta'lim muassasalarini venchurli moliyalashtirish orqali moliyaviy mablag' bilan

ta'minlashga ruxsat berilganligiga qaramasdan, bunday mablag'larni jalb etish ishlari juda sust amalga oshirilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy va innovatsion loyihalari, startup loyihalarini moliyalashtirish mazkur fondlarni mablag'larini jalb etishga e'tibor qaratish lozim va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Aytish joizki, bugungi kunda olis hududda yashovchi Oliy ta'limga o'qishga kirish istagi bo'lgan yoshlarga Buxoro davlat pedagogika instituti ustozlari tomonidan qo'shimcha tayyorlov kurslari tashkil etilib, kelgusida OTMda tahsil olishlarida o'z ko'maklarini ayamay kelmoqdalar. Oliy ta'limning moliyaviy jihatlarini to'g'ri boshqarish, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy talablarga moslashish uchun muhim shartdir.

Moliyaviy barqarorlik va samaradorlik tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvi — bu ko'p jihatli jarayon bo'lib, buning ortidan ta'limning sifatini va samaradorligini ta'minlash uchun aniq strategiya va rejalar zarur. Moliyaviy muddatlar, manbaalar va sarflar muvozanatini tutish va samarali boshqarish — bu oliy ta'limning barqarorligini ta'minlashning asosiy shartlaridir.

REFERENCES

1. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic research in educational sciences*, 2(1), 778-782.
2. Хасанова, Г. К. (2020). Classification of Educational Activities and Assessment Classifications: Improvement of Pedagogical Problems. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(11s), 1958-1961.
3. Хасанова, Г. К. (2019). Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 86-87.
4. Хасанова, Г. К. (2019). Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании. *Научный журнал*, (6 (40)), 86-87.
5. Qosimovna, H. G. (2021). The concept of the development of the giftedness of Preschool Children of Creative Self-Realization. *Middle European Scientific Bulletin*, 10(1).
6. Хасанова, Г. К. (2021). Педагогические основы развития социальной деятельности студентов вузов. *Вестник науки и образования*, (17-3 (120)), 68-71.

7. Хасанова, Г. Х., & Рахматова, Г. Ш. (2019). Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в развитии образовательного процесса. *Academy*, (10 (49)), 41-43.
8. Хасанова, Г. К. (2019). Цель использования электронных образовательных ресурсов в системе обучения и образования. *Научный журнал*, (6 (40)), 84-85.
9. Safarova, R., & Khasanova, G. (2024). RETRACTED: Organizing an environment for cooperation of students in the educational process (for ensuring the development of the new Uzbekistan society). In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 05044). EDP Sciences.
10. Хасанова, Г. К. (2021). Дилфуза Шавкатовна Мирзаева ПОДВИЖНАЯ ТВОРЧЕСКАЯ ИГРА КАК ОДИН ИЗ МЕТОДОВ АРТПЕДАГОГИКИ. *Scientific progress*, 7.
11. Умуров, З. Л., & Хасанова, Г. К. (2022). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ. *Вестник науки и образования*, (2-2 (122)), 43-45.
12. Хасанова, Г. К., & Махмудова, Х. У. К. (2020). Критерии, аспекты и уровни применения педагогических технологий. *Academy*, (5 (56)), 29-31.
13. Qosimovna, H. G. (2023). Boshlang'ich Sinflarda Raqamli O'yinlarga Asoslangan Ta'limni Tashkil Etishning Ahamiyatli Tomonlari. *Miasto Przyszłości*, 42, 334-336.
14. Хасанова, Г. К., & Мирзаева, Д. Ш. (2021). ПОДВИЖНАЯ ТВОРЧЕСКАЯ ИГРА КАК ОДИН ИЗ МЕТОДОВ АРТ-ПЕДАГОГИКИ. *Scientific progress*, 2(7), 1067-1071.
15. Хасанова, Г. К. (2019). Проблемы И Перспективы Становления Информационной Грамотности Детей Дошкольного Возраста В Узбекистане. *ББК 71.0 И74 Редакционная коллегия Ответственный редактор*, 50.
16. Хасанова, Г. К., & Мирзаева, Д. Ш. (2019). Условия успешного воспитания и обучения детей. In *Наука и инновации-современные концепции* (pp. 86-90).
17. Хасанова, Г. К. (2017). Интеграция предметов в современной школе как педагогическое явление. *Педагогическое образование и наука*, (2), 127-129.
18. Hasanova, G. Q. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR O 'YININING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Inter education & global study*, (7), 220-227.
19. Kosimovna, X. G. (2023). PEDAGOGICAL STRATEGY AND TALENT DEVELOPMENT TACTICS EDUCATIONAL SPACE FOR SCHOOL CHILDREN. *Frontline Social Sciences and History Journal*, 3(11), 20-25.
20. Hasanova, G. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV O'QITISH TIZIMINING O'RNI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 9), 441-445.

21. Хаитова, Н. И., Хасанова, Г. К., & Мухаммедова, М. Ш. (2016). ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ. *Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии*, (3-1), 148-153.
22. Умуров, З. Л., & Хасанова, Г. К. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 43-45.